

ELEKTRON TA'LIM RESURSLARINING FANDA TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

Yusupova Kamola Fozilxonovna

Farg'ona viloyati Qo'qon Shahar 28-sonli maktab
Fizika fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada elektron resurslarni ta'limda qo'llashdagi samaradorligi va darsni sifatidagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. O'quv materialining elektron shaklda bo'lishi, ya'ni matnli, grafikli, ovozli, animatsion materiallarni kompyuter ekranida ko'rish, o'rganish, o'zgartirish kiritish va yozib olish yanada chuqurroq o'rganishga imkon beradi.

Kalit so'zlari: elektron ta'lim resurslari, interfaol metod, astronomiya, prinsp

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассказывается о возможности эффективности использования электронных ресурсов в образовании и их важность в качестве урока. Наличие учебного материала в электронном виде, то есть просмотр, изучение, редактирование и запись текстовых, графических, аудио, анимационных материалов на экране компьютера, позволяет проводить более углубленное изучение.

Ключевые слова: ресурсы электронного обучения, интерактивный метод, астрономия, принципы

ABSTRACT

This article describes the possibility of the effective use of electronic resources in education and their importance as a lesson. The presence of educational material in electronic form, that is, viewing, studying, editing and recording text, graphics, audio, animated materials on a computer screen, allows for more in-depth study.

Keywords: e-learning resources, interactive method, astronomy, prinsp.

ASOSIY QISM

Yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda bo'layotgan tezkor o'zgarishlar ta'lim tizimini ham tubdan isloh qilishni taqozo etmoqda, chunki mukammal ta'lim tizimi orqali respublikamizning kelajak intellektual imkoniyatlarini va uni gullab yashnashi hamda rivojlanishini belgilab beruvchi yoshlarni har

tomonlama ijodkor, mustaqil faoliyat yuritadigan qilib tarbiyalashda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 sentyabrdagi "Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktab –internetini va "Astronomiya va aeronavtika" bog'ini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3275-son qarori astronomiya fanini O'zbekistonda kelgusida taraqqiy ettirish, yosh avlodni astronomiyani o'rganishdagi buyuk ajdodlarimiz an'analari ruhida tarbiyalash, iqtidorli yoshlarni astronomiya va aerokosmos sohalarida yetuk mutaxassislar bo'lib yetishishiga shart-sharoitlar yaratish maqsadida qabul qilindi. Xususan unda uzluksiz ta'limning uzviyligini ta'minlash, ta'limning turli bosqichlarida astronomik tushuncha, tasavvur, bilim va ko'nikmalarning shakllantirilishi lozim bo'lgan darajalarining ta'lim standartlari, minimum bilimlar darajalariga mosligini ta'minlash masalalari tahlil qilinganda bunday kamchiliklar namoyon bo'ldi. Bunday nuqsonlar, qisman, joylarda o'qituvchilarning bu fanlarni o'qitishga tayyorgarliklarining yetarli emasligida bo'lsa, qisman bu fan bo'yicha o'zbek tilida metodik ko'rsatma va qo'llanmalarining kamchiligi bilan tushuntiriladi.

Ta'lim tizimini isloh qilish kelajakda o'qituvchilik kasbini egallaydigan yangi avlodni yuqori kasbiy madaniyat, ijodiy va ijtimoiy faollik, ijtimoiy siyosiy hayotda mustaqil qatnasha olish qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilgan. Mazkur vazifalarni bajarishda zamonaviy elektron ta'lim resurslaridan foydalanish o'ta salmoqlikdir. Elektron ta'lim texnologiyalarni o'rganish hamda o'rgatish ularni amalda qo'llash ta'lim tarbiya sifatini oshirish talabidan kelib chiqadi. Elektron ta'lim resurslarining mohiyati-ta'lim jarayonini jadallashtirish, o'quvchi va talabalarning o'zlashtirishi hamda uning natijalari suratini tezlashtirishi, ijobiy natijalarga erishishi kafolatlashga qaratilgan pedagogik jarayonni anglatadi.

Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik vositalari, talaba (yoki o'quvchi)ning dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Jahon pedagogik tajribasi, zamonaviy elektron resurslarining talaba (yoki o'quvchi)larni fanlarga qiziqtirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda. Ta'limning bugungi vazifasi talabalarni kun sayin oshib borayotgan axborot ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoiniyati va sharoitini yaratib berish zarur. Shuga ko'ra yoshlarning talab va istaklaridan kelib chiqqan holda umumkasbiy fanlarni axborot kommunikatsion texnologiyalar orqali tayyorlab, yoshlarning yanada bilim va

ko'nikmalarini shakllantirishga harakat qilish bugungi kun dolzarb muammosi desak xato qilmagan bo'lamiz.

Xususan, astronomiyaning eng muhim darslardan sanalgan "Kirish" darsini o'tishda, o'quvchilarni bu fan asoslariga qiziqtirish, uning qator tarixiy materiallari orqali ularga astronomiyaning fan sifatida shakllanishi va rivojlanish tarixini ochib berish maqsad qilgan. O'qituvchining bu talablarga qay darajada tayyor bo'lishi va mahorati, astronomiya bilan dastlab tanishayotgan o'quvchilarda bu fanga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Elektron ta'lim texnologiyalar orqali professor – o'qituvchilar global auditoriyani yaratishdi. Bu esa ta'limni yanada imkoniyatlarini kengayishiga olib keldi. Bunday global tizim esa o'zi bilan birgalikda dunyo ta'limining bosqichma – bosqich rivojlanish sturukturasini shakllantirdi. Shu bilan bir qatorda ta'lim oluvchi tomonidan yangi bilimlarni o'zlashtirish, ixtirolarni o'zgaralar bilan almashish tarmog'iga erishildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Khamidov Jalil Abdurasulovich, Khujjiev Mamurjon Yangiboevich, Alimov Azam Anvarovich, Gafforov Alisher Xolmurodovich, Khamidov Odil Abdurasulovich. "OPPORTUNITIES AND RESULTS TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF MULTIMEDIA TEACHING IN HIGHER EDUCATION." *JournalofCriticalReviews* 7 (2020), 89-93. doi:10.31838/jcr.07.14.13
2. Хўжжиев, М. Я. (2020). ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ МУЛЬТИМЕДИА В ПРОЦЕССЕ УРОКА. *Universum: психология и образование*, (1), 10-13.
3. Kakhhorov S.K., Zhuraev A.R. Method of application of virtual stands in teaching subjects of electrical engineering, radio engineering and electronics// LXII International correspondence scientific and practical conference «International scientific review of the problems and prospects of modern science and education» (Boston. USA. September 22-23). 2019. – P. 44-47.
4. Рашидов Х. ва бошқалар. «Касбий педагогика» блокени ўқитиш методикаси. Тошкент: ЎМКХТТКМО ва УҚТИ, 2007. 200 б.
5. Олимов Қ.Т. ва бошқалар. Мутахассислик фанларини ўқитиш методикаси. Ўқув кўлланма. Тошкент, «Фан» – 2009. 172 б.
6. Абдуқодиров А.А., Хаитов А.Ф., Шодиев Р.Р. "Ахборот технологиялари". Т. "Ўқитувчи". 2002.